

ARASTU VA ABDULLA AVLONIY AXLOQIY QARASHLARINING QIYOSIY TAHLILI

Boqiyeva Gulsanam Primqul qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va germeneytika1-bosqich talabasi
boqiyevagulsanam154@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola sharq falsafasining mashhur faylasufi Arastuning “Axloqi Kabir” asari va ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarining bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan kelayotganligi, shu bilan birga ikkala asarning ham yoshlar ongiga ta’siri, yaxshi va yomon fazilatlarning qiyosiy tahlili yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Arastu, Abdulla Avloniy, jadid, oqillik, saxiylik, oliyjanoblik, ochko‘zlik, vijdon, diyonat, hayo, muhabbat, g‘azab, “Axloqi kabir”, “Turkiy guliston yoxud axloq”.

ABSTRACT

This article discusses the relevance of the works of the famous philosopher of Eastern philosophy, Aristotle, "The Great Ethics" and the works of the enlightener Abdullah Avloni, "The Turkish Rose Garden or Ethics", which remain relevant today, as well as the impact of both works on the minds of young people, and a comparative analysis of good and bad qualities.

Keywords: Aristotle, Abdullah Avloni, modern, intelligence, generosity, nobility, greed, conscience, piety, modesty, love, anger, "The Great Ethics", "The Turkish Rose Garden or Ethics".

KIRISH

Axloq, ezgulik, tarbiya, intizom, iffat, hayo, viqor, idrok va zakovat... kabi xislatlar insonlarning yaxshi va yomon, to‘g‘ri va noto‘g‘ri, adolat va adolatsizlik kabi tushunchalarni anglash va ularga mos ravishda xulq atvorini belgilovchi qoidalardir. Axloqiy qadriyatlar, odatlar va me’yorlar turli madaniyatlar va davrlarda o‘zgarib borgan.

Biz axloqiy asarlar sirasiga kirita oladigan Arastuning “Axloqi kabir” asaridir. Asar haqida gapirar ekanmiz inson hayoti, uning maqsadi, fazilatlari va yomonliklar, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar haqida bilib olishimiz mumkin.

“Axloqi kabir” asarida hayot ne’matlari haqida g’oyalar ham mavjud. Bular sirasiga oqillik, saxiylik, oliyjanoblik, kamtarlik, do’stparvarlik... kabi xislatlarni kiritish joiz.

Oqillik deydi Arastu: “Hirs va loqaydlik, xissizlik o’rtasidagi holatdir”¹. Yani oqil insongina bu holatlardan to’g’ri yo’l va yondashuv orqali chiqib keta olishini takidlaganligini ko’rishimiz mumkin.

Saxiylik deydi: “Isrofgarchilik va ziqnalik, xasislik o’rtasidagi sifatdir deya tariflaydi”². Aynan saxiylik insonning moddiy ahvoliga aloqador deya olamiz. Negaki, o’zida bo’lgan va orttira olgan insongina yon atrofigdagilarga berishi va saxiylik degan ta’rifga sazovor bo’lishi mumkindir. Bunday xislatlarga ega bo’lmagan inson esa xasis insondir. Ya’ni, o’zida ortig’i bilan bo’la turib kimgadir yordam qilmasdan qizg’anchilik qilish xasislikning eng yomon ko’rinishi deya olamiz.

Bu ne’matlar ichida bizga inom qilingan go’zal xislatlardan yana biri oliyjanoblikdir. “Oliyjanoblik – maqtanchoqlik, manmanlik va xokisorlik, g’ariblikning o’rtasidagi xislat deya ta’riflagan Arastu”³.

Oliyjanob inson deya or nomusli insonlarni ayta olamiz. Negaki, or nomusini mahkam tuta olgan inson haqiqiy mard va oliyjanob insondir. Oliyjanob inson hech qachon maqtanmaydi o’zidagi kamchiliklarini ham ko’ra biladi, bu esa uning insoniylik darajasini ko’rsata bera oladi.

Insonni go’zal ko’rsatuvch – ajoyib xislatlar talayginadir. Bu xislatlardan yana biri kamtarlikdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Arastuning nazarida kamtarlik – “uyatsizlik va tortinchoqlik o’rtasidagi xislat”⁴. -deya tarif beradi. Kamtarlik xislatlarini insonning gap so’zida va qilayotgan amallarida namoyon bo’ladi. Kamtar insonning ba’zi bir xatti-harakatlari orqali biz uni uyatchan yoki tortinchoq ham deyishimiz mumkin. Negaki, kamtar inson qilgan ishlari bilan maqtanishni xohlamaganligi sababli uni boshqalarga isbot qilmaydi bu esa uni tortinchoq deb o’ylashga undaydigan asosiy sababdir.

Arastu do’stparvarlikni – “xushomadgo’ylik, yaltoqlik va dushmanlik o’rtasidagi xislat”⁵. deya ta’riflaydi. Bu ta’riflar o’sha vaqtda ham bugungi kunda ham haqiqatning asosidir deyishimiz mumkin.

¹ Arastu. Axloqi kabir. Tarjimonlar: Zohir Alam, O’rfon Otajon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – B. 149.

² Arastu. Axloqi kabir. Tarjimonlar: Zohir Alam, O’rfon Otajon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – B. 150.

³ O’sha asar. – B. 151.

⁴ O’sha asar. – B. 149.

⁵ O’sha asar. – B. 148.

Do'stman deya yonda yurib insonning mol-mulkiga ko'z olaytirgan inson do'st emas haqiqiy dushmandir.

Arastu asarlarida oqillik, oliyjanoblik, yaxshilik, poklik, saxiylik, do'stparvarlik, odamgarchilik bilan bir qatorda insonning husnini, odobini buzuvchi qusurlar ham sanab o'tilganligini ko'rishimiz mumkin. Bular sirasiga kiradigan illatlardan biri hayvoniylikdir. Hayvoniylik biz insonlar tomonimizdan nomlanmaydi. Negaki yaxshi hislatlar insonga xudo tomonidan inom qilingan bo'lsa unga teskari va o'ta qo'rs harakatlar hayvonlarga berilgandir. Aynan shu jonzotlarga berilgan xatti harakatlarni takrorlayabmizmi demak bizning qilmishlarimiz ham o'z-o'zidan hayvoniylikdir.

Yana bir illat bu ochko'zlikdir. Faylasuf Suqrot aytganidek: "Hech kim yovuzlik nimaligini bilib turib, o'ziga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Ochko'z odam esa shu narsaning yomonligini biladi, ammo xirsiga berilib, shu yomonlikni tanlaydi"⁶. Insoning nafs va ochko'zligi bir kuni uni jahannamga yetaklashidan dalolat beradi.

Odob, tarbiya, axloq haqida gapirar ekanmiz buning o'z ustalari haqida gapirmasdan keta olmaymiz. O'zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyondasi jadidchilik harakatining yorqin vakili Abdulla Avloniy ham o'zining murakkab hayot yo'li va darsliklari bilan odob, axloq, tarbiya kabi xislatlarni boyitgan shaxs hisoblanadi. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir"⁷ iborasi haqiqatdan ham inson uchun uning hayot yo'li va orzu intilishlarida tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida biz aynan insonga va uning kelajagiga foydali bo'lgan xislatlarni ko'rishimiz mumkin.

Xulq, tarbiya, diyonat, qanoat, ilm, hayo, viqor, itoat, adolat, muhabbat kabi fusunkor fazilatlar bilan bir qatorda inson uchun qusur hisoblangan g'azab, aqsoni jaholat, jaholat, hamoqat, xasosat, raxovat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, hasad kabi illatlarni ham ko'rishimiz mumkin.

"Diyonat Alloh huzurini yaqin qiladurgan muqaddas e'tiqoddurki, olamda mundan suyakli narsa yo'qdur"⁸. Abdulla Avloniyning ushbu so'zlaridan bilish mumkinki diyonatli inson avvalambor haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yxshini yomondan ajrata oladigan insondir.

⁶ Arastu. Axloqi kabir. Tarjimonlar: Zohir Alam, O'rfon Otajon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – B. 149.

⁷ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "Turon zamin" nashriyoti, 2022. – B. 59.

⁸ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "Turon zamin" nashriyoti, 2022. – B. 18

“Vijdon fikrimizga tasir qiladurgan hissiyot ya’ni sezuv-tuymoqdan iborat ma’naviy quvvatni aytilur”⁹. Yaniki, har bir ishimizning to’g’ri yoki noto’g’riligini yon atrofdagilardan emas avvalambor vijdonimizdan so’ramog’imiz lozimdir. Vijdon inson aqil va fikrining haqiqiy mezonidir. Bu tarozi bilan ish tutgan inson hayotda doim to’g’ri yo’ldan boradi. Negaki vijdon ortidan yaxshi xulq shakillanadi. Yaxshi xulq ortidan esa inson albatta komillikka erishadi.

Muhabbat insonga Alloh tomonidan beriladigan buyuk ne’matdir. Bular sirasiga: yaratuvchiga muhabbat, vatanga muhabbat, oilaga muhabbat, do’st-u yorga muhabbat, ota-onaga bo’lgan muhabbatlar tushuniladi. Inson aslida muhabbat bilan tirikdur, yaniki, nimagadur intilmagan uni sevmagan insonning yashashdan maqsadi ham bo’lmaydi. Bu haqida Abdulla Avloniyning ajoyib fikrlarini ko’rishimiz mumkin: “Agar bir shogird ilm va muallimni suymasa, ishtaha ila o’qimasa, maqsudiga yetolmas”¹⁰ deya ta’kidlaydi.

Hayo nomus, iymona dalildur,

Hayosiz doim xor-u zalildur.

Hayo dilni ravshan qiladigan bir nurdir, inson har vaqt shul ma’naviy nurning ziyosiga muhtojdur. Hayo insoning pardasi va vijdonning niqobidur, har vaqt bu nafis hayoni asramog’imiz shartdir.

Ibn Sino deydi: “Insonda doim turadurgan husn va latofat hayo ila iffatdur. Hayosiz yuz jonsiz jasad kapidur”¹¹. Abdulla Avloniyning aynan ushbu fikrlarni keltirishi ham inson uchun hayoning o’rni beqiyos ekanligini ko’rsatib beradi. Abdulla Avloniy asarlarida ham biz uchun foydali xislatlar bilan bir qatorda bir qancha zararli illatlarni ham ko’rib o’tamiz.

“G’azab deb bir kishi ikkinchi ila shiddat va hiddat ila muomila qilishmakni aytilur”¹² deydi Avloniy. G’azab insonga doimo qiyin va kulfatli holatlarni keltirur. Negaki g’azab nafsning g’ururidan paydo bo’lgan deyishadi. G’azab ortidan og’ritilgan ko’ngil hech ham unutilmaydi va insonda nafrat uyg’otadigan g’oyaviy va ruhiy bir kuchdir.

G’azabdan ham yomonroq yana biri bu g’iybatdur. G’iybat aslida inson ortidan keraksiz fikrlar va tuxmat, malomat toshini yog’dirishdur. Insonning kamchilik va aybi bo’lsa uni ortidan emas yuziga ayta bilish kerak. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: “G’iybatdan saqlaningiz, g’iybat zinodan ham yomonroqdur”¹³ - demishlar.

⁹ O’sha asar. – B.32.

¹⁰ O’sha asar. – B.50.

¹¹ O’sha asar. – B.38.

¹² Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “Turon zamin” nashriyoti, 2022. – B. 54.

¹³ O’sha asar. – B. 68.

Arastuning oqillikka bergan ta'rifi va Abdulla Avloniyning adolat tushunchalarining o'xshashligi: ikkalasi ham eng yaxshi hislat bo'lib inson uchun foydalidir. Farqli jihati esa oqil inson qo'rquv tufayli nohaqlikka yo'l qo'yishi mumkin. Adolatli inson esa aql va tafakkuriga tayanadigan shaxsdir. Adolatga rioya qiladigan kishilar hech bir insonga va hattoki jonzotga o'zlari xohlab ziyon, ozor yetkazmaydilar. Oqillik sezmoq, yemoq, ichmoq, xursandchilik va xafagarchilik kabi hislatlarda ko'rinadigan yakka shaxsga tegishli bo'lgan eng oliyjanob hislatlardandir.

“Axloqi kabir” va “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarining asosiy farqlari shundaki, ahloqni tahlil qilishda Arastu asosan falsafiy tushunchalar va mantiqiylikdan ko'proq foydalangan. Abdulla Avloniy esa hikmatli so'zlar maqolalar va hikmatlarga ko'proq foydalangan.

Arastu qadimgi yunon tarixiga va jamoatchiligiga, shuningdek butun insoniyatga bag'ishlangan bo'lsa, Avloniy asarida asosan Turkiston o'lkasi qadriyatlarini, yashash sharoiti va ta'limi haqidagi malumotlarni ko'rishimiz mumkin.

Asarlarning o'ziga xos o'xshash jihatlari ham yo'q emas. Negaki har ikkala asar ham insonni yaxshi yashashga va xulq atvorli bo'lishga chorlaydi. Buning sababini asarlarda keng bayon qilingan adolat, sabr, mehr-muhabbat, xulq-atvor kabi fazilatlarda ko'rishimiz mumkin. Avloniy ayni XX asrda turkiylar uchun kerakli bo'lgan axloqiy tarbiyalarini, Arastu esa yunonlar bilan birga butun jamiyatga foydali masalalarni tarbiyaviy harakterlarni sanab o'tishgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda har ikkala asar ham insonga beg'araz ustoz bo'la oladi. Negaki, Arastu asarlari butun insoniyat uchun yaratilgan ne'matlar, xissiyotlar to'plami bo'lsa, Abdulla Avloniyning asari XX asrning eng katta e'tirofiga boy axloqiy asardir. Har ikkala asarda ham adolat, mas'uliyat, burch, insoniylik, millatparvarlik, vatanparvarlik hislatlari keng yoritib o'tilgan. Yaxshilik, yaxshi xulq bilan bir qatorda insonga qusur qilib berilgan jihatlar ham zo'r mahorat bilan tariflanganini ko'rish mumkindir. Zeroki, yaxshi va yomon xulqlar insonga birdek ta'sir qiladi va doim bir-birining o'rnini to'ldirib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arastu. Axloqi kabir. Tarjimonlar: Zohir Alam, O'rfon Otajon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “Turon zamin” nashriyoti, 2022.